

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



**«ZAMONAVTY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»**

MAVZUSIDAGI XALQARO II MIY-AMALIY ANJUMAN



**«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»**

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



**“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”**

PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE



ANDIJON-2024. 10-IYUN

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN



«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”
PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE

2024-YIL 10-IYUN

ANDIJON – 2024

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi “2024-yilga mo‘ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 16-sonli buyrug‘i, shuningdek, mamlakat ilm-fani nufuzini yanada oshirish va xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpozium, kongress, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarni yuqori ilmiy va tashkiliy amaliy darajada samarali o‘tkazilishini ta‘minlash maqsadida Andijon davlat chet tillari institutida “Ingliz tili nazariy aspektlari”, “Ingliz tili va adabiyoti” hamda “Ingliz tili amaliyoti” kafedralari tomonidan “Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi.

Mas‘ul muharrir(lar):

f.f.n., prof. S.O.Solijonov

Tahrir hay‘ati:

f.f.d.prof. D.A.Rustamov
f.f.d.prof. M.I.Umarxo‘djayev
PhD. dots. M.A.Qurbonov
f.f.d.prof. G‘.M.Xoshimov
f.f.d.prof. V.A.Vositov
PhD. dots. M.G‘.Xoshimov
p.f.n. prof. Sh.S.Alimov
PhD. G.M.Ibragimova
PhD. Q.Umrzakov
kafedra o‘qituvchisi N.Xamidov
kafedra o‘qituvchisi Z.No‘monova

Tahrir nashriyoti bo‘limi muharriri:

A.A.Xomidov

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallariga oid mazkur to‘plam, tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishdagi innovatsion yondashuvlar hamda ulardagi dolzarb masalalarga bag‘ishlanligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur to‘plamdan respublika va xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida hamda ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib borayotgan olimlar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrlar va iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalari joy olgan.

To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

Andijon davlat chet tillari instituti, 2024-yil

коммуникации: электронный научный журнал. Вып. 35. 2014. С. 1-4. URL:
<http://tverlingua.ru>

20. Юданова Е. Суггестивная функция языковых средств англоязычного политического дискурса. Автореф.дисс.канд.филол.наук. –Санкт-Петербург, 2004. –24 с.

TURKIY TILLAR ANTROPONIMIYASINING O‘RGANILISHI

Obobakirova Valizaoy

Andijon davlat chet tillari instituti,

Ingliz tili o‘qitishning integrallashgan kursi kafedrasini o‘qituvchisi

Mamarasulova Feruza

Andijon davlat chet tillari instituti 304-guruh talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biri hisoblangan antroponimlarning o‘rganilish borasidagi ilmiy izlanishlar haqida so‘z boradi. Onomastika sohasida antroponimlar muhim o‘rin tutadi. Shu boisdan, antroponimlar o‘rganilishiga jiddiy yondoshilgan.

Kalit so‘zlar: antroponimiya, onomastik birliklar, atoqli ot, ism, familiya, laqablar, toponoantrom, etnoantrom, gidroantrom.

Turkiy antroponimiya tizimini ilmiy tadqiq qilish o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlandi. Turkiy tilshunoslikda birinchi bo‘lib T.Jonuzaqov 1960-yilda “Qozoq tilida shaxs atoqli otlari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Turkiy tilshunoslikda kishi nomlariga bag‘ishlangan ushbu ilk tadqiqotda atoqli otlar tushunchasi, turdosh otlarnin atoqli otga o‘tishdagi jarayon hamda qozoq tilida bolaga ism qo‘yish motivlari, ismlarning yasalishi va grammatik tuzilishi haqida ma‘lumot berilgan. T.Januzaqov dissertatsiyasining asosiy mazmuni uning keyinchalik e‘lon qilgan kitobida o‘z ifodasini topgan.[15;220] T.Jonuzqov qozoq tili antroponim va etnonimlarini o‘rganishni davom ettirib, 1976 yilda “Osnovnie problemi onomastiki kazaxskogo yazika” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Dissertatsiyaning birinchi va ikkinchi boblari antroponimiya tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, qozoq antroponimlarining lug‘aviy-ma‘naviy xususiyatlari, yasalishi va tuzilishi, antroponimlardan boshqa tip atoqli otlarning xosil bo‘lishi, antroponimlar tarkibida uchraydigan qo‘shimchalar, formantlardan tashqari qozoq tili antroponimlarining rivojlanish tarixini davrlashtirishga katta o‘rin ajratgan. T.Januzaqov qozoq tili antroponimiyasining rivojlanish bosqichlarini 4 davrga bo‘ladi. Ushbu tasniflarda tasnif tamoyillarining asoslanishi ishonchli emasligi sezilib turibdi. Mana shunday nuqsonlar antroponimlarni davrlashtirishga bag‘ishlangan boshqa ishlarda ham ko‘rinadi. T.Jonuzaqov keyinchalik qozoq tili antroponimiyasining lingvistik va nolisoniy xususiyatlarini umulashtirgan monografiya va bir qator maqolalar e‘lon qildi. Boshqird nomshunosi T.Kusimova “Drevnebashkirskie imena”, A.P.Shayxulov “Tatarskie i bashkirskie lichnie imena tyurkskogo proisxojdieniya” mavzusidagi tadqiqotlarini nihoyasiga yetkazishdi, A.Shayxulov monografiya e‘lon qildi.[23;180] Xar ikkala muallif bu ishlarda

ba'zi jiddiy xatoliklarga ham yo‘l qo‘yishgan. A.Shayxulovning ishida asl turkiy ismlarni belgilashda ismning lug‘aviy asosi turkiy ekaniga shubxa tug‘diradigan o‘rinlar ko‘p. Xuddi shuningdek, T.Kusimova qadimiy boshqird ismlarini 19 guruxga tasniflar ekan, ismlar uchun motiv bo‘lgan tushuncha, belgini xisobga olmaydi va ismlarni ismga asos bo‘lgan apellyativga ko‘ra tasniflaydi. Masalan, tabiat hodisalari nomi bilan bog‘liq antroponimlar, rang nomi bilan bog‘lik antroponimlar, o‘simlik nomlaridan yasalgan antroponimlar, qavm-qarindosh terminlaridan yasalgan antroponimlar, toponimlardan, etnonimlardan yasalgan antroponimlar kabi.

Ozərbayjon tili antroponimiyasining lisoniy va etnolingvistik xususiyatlarini monografik tarzda Z.Sadixov tadqiq qildi. Keyinchalik A.M.Pashaev ozərbayjon tilidagi laqablarni o‘rgandi.[16;230] Ozərbayjon onomastikasi rivojiga M.N.Chobanov sezilarli xissa qo‘shdi. X.Aliyevning antroponimiyaning umumiy muammolariga bag‘ishlangan tadqiqoti e‘lon qilindi. Qirg‘iz tilida shaxs atoqli otlar i yuzasidan dastlab ba'zi kuzatishlar olib borilgan bo‘lsa-da, antroponimiya tizimi yetarli ravishda o‘rganilgan emasdi. Bu murakkab ishni bajarish Sh.Japarovning zimmasiga tushdi. U, avvalo, qirg‘iz tilidagi ismlar materialini o‘zida jamlagan ikkita ishni e‘lon qildi. Keyinchalik, u qirg‘iz tili antroponimlariga oid tadqiqotlarini kengaytirib, “Qirg‘iz adam attari” monografiyasini yaratdi. Mana shu ishlar asosida u 1989-yili “Qirg‘iz antroponimiyasi” mavzusida doktorlik dissertasiyasini himoya qildi. Uning tadqiqotidagi sezilarli kamchilik “zamonasizlik”, “sho‘rolar mafkurasi, rus tilining roliga katta baxo berishi, go‘yoki bu til ta'sirida qirg‘iz antroponimiyasi rivojlangan va boyigani haqidagi zo‘rma-zo‘raki fikrlardir. Onomastik birliklar guruhi orasida muayyan aloqalar, bir-birining vazifasiga o‘tishlar yuz berib turadi. Bu jarayon transmonizatsiya,deb yuritiladi. Masalan, toponimlar, etnonimlar, gidronimlar va boshqalardan ism vazifasiga ko‘chadi. Masalan, Toshkenboy, Mangiroy, va boshqalar. Bularni antroponimik tadqiqotlarda toponoantrom, etnoantrom, gidroantrom deb yuritiladi. Kishi nomlarining toponimga o‘tishi ayniqsa toponimiyada sermaxsuldir. Buni tatar tilshunosi G.F.Sattarov tadqiqotlari yorqin ko‘rsatdi. Mustaqillik davrida joy nomlarini tartibga solinishi bo‘yicha qilingan ishlar jarayonida respublika hududida ko‘pgina toponimik ob'ektlar kishi nomlari bilan atalgani ma'lum bo‘ldi. Bu, albatta, ijobiy xodisa emas. Bunday nomlarning aksariyati boshqa nomlar bilan almashtirildi. G.F.Sattarov 1973-yilda Tatariston hududidagi antroponimlarni o‘rganib, tadqiqotlar asosida monografiya e‘lon qildi. Keyinchalik doktorlik dissertasiyasini himoya qildi. U antroponimiyaga doir ishlarini ham davom ettirdi hamda 1981- yili “Tatar isemneri suzlege” nomli tatar antroponimlarining ma'nosi izohli lug‘atini e‘lon qildi. Muallifning yozishicha, u lug‘atni tuzish uchun 50 mingdan ortiq kartoteka yiqqan. Afsuski, lug‘atga kiritilgan ba'zi ismlarning tatarcha ekani shubxalidir.

Joy nomlari bo‘yicha to‘plangan boy lingvistik material unga 1990-yilda “Tatar antroponimikas” nomli monografiyani yaratishga asos bo‘ldi. Ishda, asosan, ismlar taxlil qilingan. Ular paydo bo‘lish davri, motivativ-nominativ

asoslari, etnografik udumlarga bog'liqligi jixatidan lug'aviy qatlamlar bo'lib, tasniflangan har bir guruh boy ilmiy matnlar va faktik materiallar asosida o'rganilgan. Shuningdek, ishda tatar otchestvolari, laqablari, familiyalarini o'rganishga ham e'tibor qilingan. Yuqorida biz turkiy xalqlar antroponimiyasi yirik vakillarining asosiy tadqiqotlariga to'xtaldik. Ushbu mualliflar va ularning shogirdlarini monografiyalari, maqolalari e'lon qilingan bo'lib, ularning barchasiga bu o'rinda to'xtalishning imkoni yo'q. Bu ishlar turkiy tillar onomastikasi bo'yicha tuzilgan bibliografik ko'rsatkichlarda antroponimiya tadqiqotchilarining ilmiy faoliyatiga bag'ishlab tuzilgan bibliografik ko'rsatkichlarda o'z aksini topgan. Keyingi yillarda turkiy tillar onomastikasi bilan shug'ullanuvchi bir qator yosh tadqiqotchilar yetishdi. Ular e'lon qilayotgan ishlarning taxlili maxsus tadqiqotni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.Begmatov. O'zbek tili antroponimikasi, "Fan", Toshkent, 2013
2. Жанузацов Т. Казактшдепжалкыесшдер. Алма-Ата, 1965
3. Жапаров Ш. Кыргыз адам аттари. Фрунзе: Илм, 1989.
4. Т.Х. Древнебашкирские антропонимы: Автореф. дис.канд. филол. наук. Уфа, 1975. С. 17-25.
5. Садыхов З. Личные имена в азербайджанском языке: Автореф. дис.канд.филол. наук. Баку, 1975.
6. Пашаев А.М. Прозвища в азербайджанском языке: Автореф. дис.канд. филол. наук. Баку, 1987. С. 18.
7. Шайхулов А. Г. Татарские и башкирские личные имена тюркского происхождения. Уфа, 1983

Zamonaviy tilshunoslikda til va madaniyat, nutqiy akt va pragmatik ma'no munosabatlari xususidagi konsepsiyalar

*Uliqova Mavluda Sotvoldiyevna
ADCHTI, Ingliz tili va
adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Til va madaniyatning bog'liqligi, madaniyatning tilda aks etish muammosi bilan bog'liq masalalarning metodologik asosi, nutqiy akt va pragmatik ma'no munosabatlari xususidagi konsepsiyalar

Kalit so'zlar: Lingvokulturologiya, lingvistik pragmatika, tilshunoslik

Annotation: The methodological basis of issues related to the relationship between language and culture, the problem of the reflection of culture in language, concepts about the relationship of speech and pragmatic meaning

Key words: Lingvoculture, lingvistik pragmatika, linguistics

Аннотация: Методологическая основа вопросов, связанных с отношением языка и культуры, проблема отражения культуры в языке, понятия речевого акта и прагматические смысловые отношения

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

| | | |
|-----|---|-----|
| 16. | APPLICATIONS OF THE SEMANTIC- PRAGMATIC DISTINCTION Tuhtaeva Shahzoda Oktamovna | 64 |
| 17. | SOTSIOLINGVISTIKANING METODOLIK JIHLTLARI Baxridinova Mutabarxon Adaxamovna | 66 |
| 18. | ANALYSIS OF THE PROBLEMS OF MODERN LINGUISTICS Ashirova Mashxura Bakjon qizi Sh.D.Razakova | 68 |
| 19. | CONTEMPORARY ISSUES OF SOCIOLINGUISTICS Afra Khanam Adakhamova Malokhatkhon Nuriddin kizi | 70 |
| 20. | DUNYO KONSEPTUAL MANZARASIDA VOQELIKNI AKS ETISHI Nasirova Muxayyo Kimsanovna | 72 |
| 21. | YEVROPA VA ISLOM DUNYOSI XALQ TABOBATIDA GUMORAL NAZARIYA, UNDAGI ATAMALAR VA ULARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI No'monov Muhiddin | 75 |
| 22. | PSIXOLINGVISTIKANING O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI TADQIQI M.Mamajonov | 78 |
| 23. | ZAMONAVIY YO'NALISHLAR HAMDA ULARNING RIVOJLANISH ASOSLARI Ro'zimurodova E'zoza Qulmamat qizi Sh.D.Razakova | 81 |
| 24. | Suggestiv lingvistikaga xos tushunchalar haqida Yusupova Shahzoda Tohirjon qizi | 83 |
| 25. | TURKIY TILLAR ANTROPONIMIYASINING O'RGANILISHI Obobakirova Valizaoy Mamarasulova Feruza | 87 |
| 26. | Zamonaviy tilshunoslikda til va madaniyat, nutqiy akt va pragmatik ma'no munosabatlari xususidagi konsepsiyalar Uliqova Mavluda Sotvoldiyevna | 89 |
| 27. | Lingvomadaniy kontsepsiyani tahlil qilish usullari Boltayeva Nargiza Raxmatovna | 93 |
| 28. | YANGI SO'ZLARNING YARATILISHI VA SHAKLLANISHIDA KOGNITIV JARAYONLARNING O'RNI To'rayeva Maftuna Akbar qizi | 97 |
| 29. | РОЛЬ И МЕСТО КОГНИТИВНО-КОНЦЕПТУАЛЬНОГО ПОДХОДА КАК ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ М.Г.Хошимов | 101 |
| 30. | DIALOGIK NUTQ VA MANIPULYATIV KOMMUNIKATSIYADA GENDERNING AHAMIYATI Tulanbayeva Shahnozahon Shavkatbekovna | 104 |
| 31. | MODERN PROBLEMS OF SOCIOLINGUISTICS Murodova Jasminaxon Oybek qizi, Islomova Z | 110 |
| 32. | Actual problems of general linguistics Tashkulova Feruza Islomova Zarina | 113 |